

BOZOR MUVOZANATI VA UNGA TASIR KO'RSATUVCHI OMILLAR

Toshken davlat iqtisodiyot universiteti talabasi

Dadajonov Sarvarbek Obidjon o'g'li

email:sawadadajonov@gmail.com

tel: +998948047681

Annotatsiya: O'zbekiston Respublikasida keng imkoniyat hamda sharoitlar yaratib qo'yildi. Iqtisodiyotning bozor munosabatlariga o'tishi bilan jamiyatda bozor iqtisodiyotining amal qilish mexanizmini, turli mulkchilikka asoslangan korxonalarning (firmalarning) xo'jalik yuritish faoliyatini, ularning bozor sharoitidagi harakatlarini, cheklangan ishlab chiqarish resurslaridan oqilona foydalanish yo'llarini va shu asosda ularni samarali faoliyat yuritish usullari ko'riladi.

Kalit so'zlar: talab, taklif, narx, firma, omil, muvozanat, iqtisod, bozor munosabati.

Аннотация: В Республике Узбекистан созданы широкие возможности и условия. С переходом экономики к рыночным отношениям в обществе возрастает потребность в знаниях, обучающих механизму функционирования рыночной экономики, хозяйственной деятельности предприятий (фирм) на основе различной собственности, их движению в рыночных условиях, способам рационального использования ограниченных производственных ресурсов и на этой основе их эффективному функционированию.

Ключевые слова: спрос, предложение, цена, фирма, фактор, равновесие, экономика, рыночные отношения.

Annotation: The Republic of Uzbekistan has created a wide range of opportunities and conditions. With the transition of the economy to market relations, the need for knowledge increases in society, which teaches the mechanism of operation of the market economy, the economic activities of various ownership-based enterprises (firms), their

movement in market conditions, ways of rational use of limited production resources and, on this basis, their effective functioning.

Key words: demand, supply, price, firm, factor, equilibrium, economics, market relations.

Kirish

Bozor muvozanati bu talab va taklif o'zaro mos keladigan, ya'ni muvozanat narxida savdo amalga oshiriladigan holat tushuniladi. Muvozanat nuqtasi talab va taklif egri chiziqlari kesishgan joyda hosil bo'ladi. Agar bozor muvozanatda bo'lsa, bozordagi ortiqcha yoki yetishmovchiliklar yuzaga kelmaydi. O'zbekiston Respublikasida judaham keng va yangi imkoniyat hamda sharoitlar yaratib qo'yildi. Bozor muvozanati iqtisodiyotning asosiy tushunchalaridan biridir va u tovarlar va xizmatlarning taklif qilingan miqdori va talab qilingan miqdori bir xil bo'lgan holatni ifodalaydi. Muvozanat holati narx barqarorligi va resurslarni samarali taqsimlash uchun muhimdir. Bozor muvozanatini tushunish, iqtisodchilar, siyosatchilar va tadbirkorlar uchun zarurdir, chunki u iqtisodiy faoliyatni boshqarish va strategik qarorlar qabul qilishda muhim rol o'ynaydi. Bozor muvozanati tushunchasi 18-19-asrlarda klassik iqtisodiy nazariyalar bilan bog'liq ravishda paydo bo'lgan. Adam Smitning "ko'rinmas qo'l" konsepsiyasi bozor natijalarini o'z-o'zidan boshqarishni ta'kidlagan bo'lsa, Alfred Marshall taklif va talab egri chiziqlari orqali bozor muvozanatini grafik ko'rinishda tasvirladi. Vaqt o'tishi bilan, turli modellar ishlab chiqilgan bo'lib, ular bozor xatti-harakatlarini turli sharoitlarda, masalan, mukammal raqobat, monopolistik raqobat va oligo-poliya sharoitlarida tahlil qilish imkonini beradi. Iqtisodiyotning bozor munosabatlariga Jadal o'tishi bilan jamiyatda bozor iqtisodiyotining amal qilish mexanizmini, turli mulkchilikka asoslangan korxonalarning (firmalarning) xo'jalik yuritish faoliyatini, ularning bozor sharoitidagi harakatlarini, cheklangan ishlab chiqarish resurslaridan samarali va oqilona foydalanish yo'llarini va shu asosda ularni samarali faoliyat yuritishlarini o'rgatuvchi bilimga bo'lgan ehtiyoj ortib

boradi. O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotida olib borilayotgan erkinlashtirish jarayonlari chuqurlashdi, moliya bozori shakllandi va undagi operatsiyalarning ko'lami jadal o'sdi, ishtirokchilarining soni ham ko'paydi. Bozor muvozanati bozordagi talab va taklifning miqdor va tarkib jihatidan bir-biriga muvofiq kelishi. Bozor muvozanati bir lahza o'zgarish taklifida, qisqa muddatli tashkilot yoki firmalarning o'zgarish miqdori va ishlab chiqarish hajmining o'zgarishi va uzoq muddatli iqtisodiy shartsharoit tashkilot, firmalar va mavjud talabning zamonaviy darajasiga muvofiq kelganda bo'lishi mumkin. Talab va taklif uzoq vaqt bir-biridan ajralib qolsa, Bozor muvozanati buziladi. Umuman olganda Bozor muvozanati hamma tovarlarga nisbatan va uzoq, vaqt bo'lishi mumkin.

Asosiy qism

Bozor muvozanatining asosiy elementlari narx, taklif va talabdir. Talab va taklif nisbati mahsulotning bozorda narxini belgilaydi. Narx iste'molchilar va ishlab chiqaruvchilar uchun bozorning holati to'g'risida ma'lumot beradi va shu bilan bozorda iqtisodiy ob'yektning xatti-Harakatlarini oldindan belgilab beradi. Narx tovarning mavjudligi shakli, uning o'lchovidir. Shuning uchun bu keng ma'noda tovar qiymatining pul ko'rinishidagi ifodasi hisoblanadi, ya'ni mehnat qiymati, foydalanish qiymati va almashinuv qiymati. Tovar ayirboshlash sharoitida ishlab chiqarish bozorda tovarlarni yetkazib berish va tovarlarga bo'lgan talab tomonidan iste'mol bilan ifodalanadi. Bozor muvozanati bir qator omillarning ta'sirida o'zgarishi mumkin. Birinchidan, tashqi omillar iqtisodiy sharoitlar bilan bog'liq bo'lib, ular ichki bozorning talab va taklifini shakllantirishda muhim rol o'ynaydi. Misol uchun, global iqtisodiy o'zgarishlar, masalan, xalqaro savdo kelishuvlari, to'siqlar, yoki global iqtisodiy inqirozlar bozor muvozanatini sezilarli darajada o'zgartirishi mumkin. Xususan, global inqirozlar talabning pasayishiga va tovarlar ishlab chiqarishning qisqarishiga olib kelishi mumkin, bu esa bozor muvozanatini buzishi mumkin.

Ikkinchidan, siyosiy va ijtimoiy omillar ham bozor muvozanatiga ta'sir qiladi. Davlat siyosati, masalan, soliq siyosati, subsidiyalar, yoki maqbulliklar bozorning talab va

taklifiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Agar davlat subsidiyalarni kuchaytirs, bu mahsulotlar narxining pasayishiga va natijada talabning oshishiga olib kelishi mumkin. Shu bilan birga, siyosiy beqarorlik yoki ijtimoiy harakatlar ham bozor muvozanatiga ta'sir qiladi, chunki ular iqtisodiy faoliyatni cheklashi yoki iste'molchilarning ishonchini pasaytirishi mumkin. Uchinchi, tabiiy ofatlar va ekologik omillar ham muhim rol o'ynaydi. Masalan, qurg'oqchilik yoki boshqa tabiiy ofatlar qishloq xo'jaligi mahsulotlarining yetkazib berishiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Bu talab va taklif balansini buzib, narxlarning oshishiga olib kelishi mumkin. Ekologik omillar, xususan, barqaror rivojlanish va tabiatni muhofaza qilish masalalari, bozor muvozanatiga ta'sir ko'rsatadi, chunki iste'molchilar ko'proq barqaror va ekologik toza mahsulotlarga intilishmoqda. To'rtinchi, texnologik o'zgarishlar ham bozor muvozanatiga ta'sir ko'rsatadi. Innovatsiyalar yangi mahsulotlar va xizmatlar paydo bo'lishiga olib keladi, bu esa talab va taklifni o'zgartirishi mumkin. Misol uchun, yangi texnologiyalar ishlab chiqarishni samarali qilib, taklifni oshirishi mumkin, bu esa narxlarning pasayishiga va iste'molchilarning talabining oshishiga olib kelishi mumkin. Aksincha, texnologiyaning zaifligi yoki eskirishi talabni kamaytirishi mumkin. Shuningdek, bozor muvozanatiga ta'sir qiluvchi tashqi omillar orasida xalqaro iqtisodiy sharoitlar, valyuta kurslari, va global bozor tendensiyalari ham muhim ahamiyatga ega. Xalqaro savdo va investitsiyalar, masalan, bir mamlakatning eksport va import muvozanatini belgilaydi. Agar bir mamlakatning valyuta kursi kuchli bo'lsa, bu uning eksportini qiyinlashtirishi mumkin, natijada talab va taklif balansini o'zgartiradi. Ushbu omillar talab va taklifni shakllantiruvchi ichki va tashqi omillar bo'lishi mumkin. Talabga ta'sir ko'rsatuvchi omillar:

Iste'molchilarning daromadlari – Aholi daromadining oshishi talabning ortishiga olib keladi. **Narx darajasi** – Agar narx baland bo'lsa, talab pasayadi, aksincha, past bo'lsa, talab ortadi. **O'rinbosar va komplementar tovarlar** – Muayyan mahsulotning narxi oshganda, uning o'rnini bosuvchi mahsulotga talab ortadi. **Demografik o'zgarishlar** – Aholining soni va tarkibi talabga sezilarli ta'sir qiladi. **Taklifga ta'sir o'tkazuvchi omillar**

Ishlab chiqarish xarajatlari – Xomashyo va ishchi kuchi xarajatlari oshsa, taklif kamayishi mumkin, **Texnologik taraqqiyot** – Yangi texnologiyalar ishlab chiqarish samaradorligini oshirib, taklifni kengaytirishi mumkun, **Tabiiy sharoitlar** – Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari uchun iqlim o‘zgarishlari muhim omil bo‘ladi, **Soliqlar va subsidiya** – Yuqori soliqlar taklifni kamaytirsam, subsidiya uning oshishiga yordam beradi, **Bozorga kirish va chiqish imkoniyatlari** – Yangi kompaniyalarning kirib kelishi taklifni oshirishi mumkun, Bozor mexanizmining amal qilishida talab va taklif qonunlari muhim o‘rin tutadi. Talab va taklif narxni shakllantiradi, shu bilan birga narx talab va taklif o‘rtasidagi nisbatni aniqlab beradi. Bu bobda dastlab talab va taklifga narxning ta‘sirini alohida qarab chiqamiz. Keyin talab va taklif ta‘sirida muvozanatlashgan narxning o‘rnatilishi tushuntirib beriladi. Shu o‘rinda talab va taklif qonunlari, ularning miqdoriga ta‘sir etuvchi omillarni, ular o‘rtasidagi mutanosiblikni bayon etishga alohida e‘tibor beriladi. Shuningdek, talabning shakllanishi va amal qilishi, unga ta‘sir etuvchi omillarni o‘rganishda iqtisodiyot nazariyasida muhim yo‘nalishlardan biriga aylangan iste‘molchi xatti-harakati nazariyasi ham mavjuddir. Ehtiyoj insonlarning hayotiy vositalariga bo‘lgan zaruriyatini ifodalovchi ilmiy kategoriya sifatida taraqqiyotning hamma bosqichlari uchun umumiy va doimiy hisoblanadi. Raqobat va monopoliyalar bozor muvozanati jarayonida muhim rol o‘ynaydi. Raqobat va monopoliyaning ta‘siri bozorning ishlashini, narxlar va ishlab chiqarish darajasini to‘g‘ridan-to‘g‘ri belgilaydi. Ushbu bo‘limda raqobat va monopoliyalarning bozor muvozanatiga ta‘siri va ularning o‘zaro aloqalari chuqur tahlil qilinadi.

Raqobat iqtisodiy nazariyada ideal bozor sharoitlarini yaratishga qaratilgan. Raqobatli bozorlar, odatda, ko‘plab ishlab chiqaruvchilar va iste‘molchilarni o‘z ichiga oladi, bu esa narxlarning adolatli darajada belgilanishiga olib keladi. Raqobat orqali ishlab chiqaruvchilar iste‘molchilar uchun eng yaxshi mahsulotni ishlab chiqarishga intilishadi. Ular o‘z mahsulotlarini yaxshilash, narxlarini pasaytirish va xizmat ko‘rsatishni yaxshilash orqali bozor ulushini oshirishga harakat qilishadi. Bu jarayon bozor muvozanatini saqlab turadi, chunki u ishlab chiqaruvchilar va iste‘molchilar o‘rtasidagi muvozanatni

ta'minlaydi. Biroq, monopoliyalar bozor muvozanatiga boshqa ta'sir ko'rsatadi. Monopoliya bir yoki bir nechta kompaniyalar tomonidan bozorning asosiy qismini egallaganida yuzaga keladi. Monopoliyalarda raqobatning yo'qligi sababli, narxlar ko'pincha raqobatli bozorlarga qaraganda yuqori bo'ladi va iste'molchilar uchun mahsulot talabi kamayadi. Monopoliya sharoitida, ishlab chiqaruvchi narxni o'z ixtiyoriga ko'ra belgilaydi, bu esa bozor muvozanatini buzadi. Monopoliyalar ko'pincha ishlab chiqarishni kamaytiradilar, bu esa narxlarni oshirishga olib keladi. Natijada, iste'molchilar ko'proq to'lov qilishga majbur bo'lishadi va bozorning samaradorligi pasayadi. Raqobat va monopoliyaning o'zaro aloqasi bozor muvozanatini shakllantirishda muhim o'rin tutadi. Raqobatning kuchayishi monopoliyani kamaytirishi mumkin, bunda ko'proq ishlab chiqaruvchilar bozorga kirishadi va iste'molchilarga ko'proq tanlov imkoniyatini taqdim etadi. Biroq, agar bir kompaniya bozorni monopoliyaga aylantirishda muvaffaqiyat qozonsa, bu holat narxlarni oshirishi va iste'molchilarning tanlovini cheklashi mumkin.

Misol sifatida, texnologiya sohasidagi monopoliyalarni ko'rib chiqish mumkin. Misol uchun, bir nechta yirik texnologik kompaniyalar bozorning katta qismini egalladi va o'z mahsulotlari narxlarini belgilashda kuchli ta'sirga ega. Bu holat iste'molchilar uchun tanlovni cheklaydi va raqobatni kamaytiradi. Shunday qilib, monopoliyalar narxlarni oshirishi va bozor muvozanatini buzishi mumkin. Shuni ta'kidlash kerakki, raqobat va monopoliyalarning ta'siri bozor muvozanatiga turlicha ta'sir ko'rsatishi mumkin. Raqobatli sharoitlarda, bozor muvozanati narxlar va ishlab chiqarish darajasini samarali ravishda belgilaydi. Monopoliyalarda esa, iqtisodiy samaradorlik pasayadi va iste'molchilar uchun salbiy oqibatlarga olib keladi. Shunday qilib, raqobat va monopoliyalar o'rtasidagi muvozanat iqtisodiy faoliyatning natijasini shakllantirishda juda muhimdir.

Xulosa. Bozor tizimi barcha mamlakatlar iqtisodiyotiga xos bo'lib, u o'z doirasini to'xtovsiz kengaytirib bormoqda. Iqtisodiy munosabatlarni samarali tashkil etish va resurslarni oqilona joylashtirish avvaldan insoniyat diqqatini, ayniqsa iqtisod ahlini jalb etib kelgan. Ma'lumki jamiyat ixtiyoridagi ishlab chiqarish imkoniyatlari, mehnat resurslari, tabiiy boyliklar, yer, ya'ni bu resurslar chegaralangan bo'lib ulardan

foydalanish, joylashtirish oqilona yondashuvni talab etadi. Bozor muvozanati iqtisodiyotning barqarorligi uchun muhim omil bo'lib hiaoblanadi. Talab va taklif o'rtasidagi muvozanat narxni shakllantirib berib, bozordagi barqarorlikni ta'minlab beradi. Shuning uchun mamlakatda tadbirkorlar va iste'molchilar bozor jarayonlarini doimiy ravishda kuzatib borishlari va muvozanatni ushlab tura olish uchun tegishli choralar ko'rishlari zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar

- https://www.google.com/search?q=sbtsue.uz+hemis+student&rlz=1C1GGRV_enUZ1033UZ1033&oq=&aqs=chrome.0.35i39i362l8.220609004j0j15&sourceid=chrome&ie=UTF-8
<https://yondaftar.uz/post?id=43>
<http://nauchniyimpuls.ru/index.php/ni/article/download/1177/937/952>
<http://www.genderi.org/talab-va-taklif-tahlili-asoslari-bozor-muvozanati-talab-talab.html?page=4>
<https://staff.tiiame.uz/storage/users/527/presentations/fXknU2gavpu6vZYhaIQGBDKsYoKlaAqvmjFaut5z.pdf>